

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2019 yil 1 aprel holatiga 1900,0 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 5,3 ming kishiga yoki 0,3 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 702,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 37,0 %), qishloq aholisi soni 1197,5 ming kishini (63,0 %) tashkil etdi.

### E'tibor bering: 2019 yil yanvar-mart

- Aholi soni **5,3 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **7,9 ming nafarni** tashkil etdi.
- **1,8 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,6 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Buxoro viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019 yil yanvar-mart oylarida)



## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

(2018-2019 yillar 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	2018 yil	2019 yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1869,9</b>	<b>1900,0</b>	<b>101,6</b>
Buxoro sh.	276,3	278,5	100,8
Kogon sh.	60,2	60,7	100,8
tumanlar:			
Olot	95,9	97,7	101,9
Buxoro	160,6	163,6	101,9
Vobkent	135,0	137,4	101,8
G'ijduvon	294,9	299,7	101,6
Kogon	74,8	76,6	102,4
Qorako'l	158,9	161,7	101,8
Qorovulbozor	17,9	18,1	101,1
Peshko`	118,3	120,6	101,9
Romitan	136,7	139,0	101,7
Jondor	168,3	171,7	102,0
Shofirkon	172,1	174,7	101,5


\*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2019 yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 299,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 %ni) va Buxoro shahrida 278,5 ming kishini (14,7 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 60,7 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 18,1 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2018 yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 2,4%ni, SHofirkon tumanlarda 2,0 %ni, Buxoro, Olot va Peshko` tumanlarida 1,9%ni, Qorako'l va Vobkent tumanlaridada 1,8%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Buxoro va Kogon shaharlarida 0,8% ni tashkil etdi.

## Demografik holat

### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



### Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




## Demografik holat

### Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2019 yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>951,0</b>	<b>949,0</b>
Buxoro sh.	138,1	140,4
Kogon sh.	29,5	31,2
<i>tumanlar:</i>	0,0	0,0
Olot	49,0	48,7
Buxoro	82,2	81,4
Vobkent	69,1	68,3
G'ijduvon	152,9	146,8
Kogon	37,9	38,7
Qorako'l	79,9	81,8
Qorovulbozor	8,9	9,2
Peshku	60,3	60,3
Romitan	70,4	68,6
Jondor	84,7	87,0
Shofirkon	88,0	86,7

### Hududlar kesimida aholi zichligi (2019 yil 1 aprel holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 7,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,8 promilleni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,9 promillega ko'paygan (2018 yilning yanvar-mart oylarida 15,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan Kogon shahrida (13,1 promilledan 17,1 promillega), Vobkent tumanida (15,1 promilledan 17,8 promillega) va Qorovulbozor tumanida (14,8 promilledan 17,5 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Romitan tumanida (16,6 promilledan 15,4 promillega) va Kogon tumanida (19,6 promilledan 18,8 promillega) tumanlarida kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Qiz bolalar:**  
3,8  
ming nafar

**O'g'il bolalar:**  
4,1  
ming nafar

### Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



## Demografik holat

Buxoro viloyati bo`yicha tug`ilganlar soni, kishi  
(yanvar-mart)

	2018 y.	2019 y.	O`sinh sur`ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>7 353</b>	<b>7851</b>	<b>106,8</b>
Buxoro sh.	991	1110	112,0
Kogon sh.	194	256	132,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	405	460	113,6
Buxoro	574	595	103,7
Vobkent	502	603	120,1
G'ijduvon	1 255	1294	103,1
Kogon	360	354	98,3
Qorako'l	710	727	102,4
Qorovulbozor	65	78	120,0
Peshku	459	475	103,5
Romitan	557	526	94,4
Jondor	575	629	109,4
Shofirkon	706	744	105,4

## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida 1,8 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 3,8 promilleni tashkil etdi, 2018 yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega kamaydi (2018 yilning yanvar-mart oylarida 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2018 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayish Buxoro shahrida (5,0 promilledan 4,0 promillega), Qorovulbozor (3,9 promilledan 1,8 promillega) Romitan (4,4 promilledan 3,2 promillega), G'ijduvon (4,6 promilledan 3,8 promillega), Vobkent (4,2 promilledan 4,0 promillega), Peshko` (3,4 promilledan 3,1 promillega) tumanlarida kuzatilgan bo'lib aksincha Qorako`l (3,6 promilledan 4,1 promillega) va Shofirkon (3,9 promilledan 4,3 promillega) o'sish holati kuzatildi


### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
1,0 ming  
kishi

**Ayollar:**  
0,8 ming  
kishi

### Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



## Demografik holat

### Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>1 928</b>	<b>1790</b>	<b>92,8</b>
Buxoro sh.	342	274	80,1
Kogon sh.	72	71	98,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	90	91	101,1
Buxoro	141	141	100,0
Vobkent	138	135	97,8
G'ijduvon	339	279	82,3
Kogon	77	79	102,6
Qorako'l	139	165	118,7
Qorovulbozor	17	8	47,1
Peshku	100	93	93,0
Romitan	147	111	75,5
Jondor	162	158	97,5
Shofirkon	164	185	112,8

## Demografik holat

2019 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 61,2 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 %i o'simtalardan, 4,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 11,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 63 nafarni tashkil etib, ularning 49,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 3,2 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 20,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 3,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 7,9 %i yuqumli parazitlar kasalliklardan va 15,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



### 2019 yil yanvar-mart

**Tabiiy o'sish.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,1 ming kishini tashkil etib, 2018 yil mos davriga nisbatan 0,6 ming kishiga (2018 yilning yanvar-mart oylarida 5,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:  
6,1 ming kishi

## Demografik holat


**Nikoh.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,6 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Romitan (113,4 %), Jondor (79,2 %), Olot (81,4 %), Shofirkon (112,1 %) va Buxoro shahri (112,8%) tumanlarda to'g'ri kelmoqda.

**Nikohdan ajralishlar.** 2019 yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qorako'l (2.6 barobar), Romitan (154,2 %) va Shofirkon (122,2 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)**



## Demografik holat

### Hududlar kesimida nikoh ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2019 yil yanvar-mart)



### Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da	2018 y.	2019 y.	O'sish sur'ati %da
<b>Buxoro viloyati</b>	<b>3 387</b>	<b>3632</b>	<b>107,2</b>	<b>438</b>	<b>499</b>	<b>113,9</b>
Buxoro sh.	461	520	112,8	133	154	115,8
Kogon sh.	104	101	97,1	23	26	113,0
<i>tumanlar:</i>						
Olot	173	162	93,6	14	16	114,3
Buxoro	259	342	132,0	39	34	87,2
Vobkent	238	263	110,5	25	23	92,0
G'ijduvon	442	464	105,0	65	63	96,9
Kogon	147	151	102,7	22	25	113,6
Qorako'l	322	343	106,5	12	32	266,7
Qorovulbozor	26	24	92,3	4	4	100,0
Peshku	263	263	100,0	17	16	94,1
Romitan	276	313	113,4	24	37	154,2
Jondor	412	390	94,7	33	36	109,1
Shofirkon	264	296	112,1	27	33	122,2

**Migratsiya.** 2019 yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 1,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 2,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2018 yilning mos davrida minus 0,7 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018 yil yanvar-mart	2019 yil yanvar-mart
<b>Ko'chib kelganlar</b>	1,6	1,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	2,3	2,0
<b>Migratsiya saldosini</b>	-0,7	-0,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahrida (minus 0,2 ming kishi), G'ijduvon tumanida (minus 0,1 ming kishi) qayd etildi.

